

YOSHLAR MASALASI — E’TIBOR MARKAZIDA

Yangiobod tumani hokimligida “Yoshlar kuni” doirasida tumanda yoshlar bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish, ularning muammolarini oʻrganish, bandligini taʼminlash hamda boʻsh vaqtini mazmunli tashkil etish borasida amalga oshirilayotgan ishlar muhokamasiga



bagʻishlangan navbatdagi yigʻilish boʻlib oʻtdi.

Yigʻilishga tuman hokimi Ibrohim Qarshiboyev raislik qildi. Unda tuman hokimligi mas’ullari, tegishli tashkilot va idoralar vakillari hamda yoshlar bilan ishlash yoʻnalishida faoliyat olib borayotgan mutasaddilar ishtirok etdi.

Yigʻilish avvalida tumanda yoshlar siyosati doirasida amalga oshirilayotgan ishlar, mavjud muammolar va kelgusidagi ustuvor vazifalar yuzasidan axborotlar tinglandi. Xususan, yoshlarning bandligini taʼminlash, ularni kasb-hunarga oʻrgatish, zamonaviy mehnat bozorida talab yuqori boʻlgan yoʻnalishlarga jalb etish, tadbirkorlik tashabbuslarini qoʻllab-quvvatlash hamda yoshlarning munosib daromad manbaiga ega boʻlishiga koʻmaklashish masalalariga

alohida eʼtibor qaratildi.

Taʼkidlanganidek, yoshlar bilan ishlashda faqat mavjud muammolarni qayd etish emas, balki ularning kelib chiqish sabablarini chuqur oʻrganish va har bir yoshga manzilli yondashuv asosida amaliy yordam koʻrsatish muhim ahamiyatga ega. Shu bois, yoshlarning qiziqishi, qobiliyati, kasbiy koʻnikmalari va hayotiy maqsadlarini inobatga olgan holda ular bilan individual ishlash zarurligi qayd etildi.

Yigʻilishda yoshlarning boʻsh vaqtini mazmunli tashkil etish masalasiga ham alohida toʻxtalib oʻildi. Ularni sport, madaniyat va sanʼat, kitobxonlik, intellektual oʻyinlar, turli toʻgʻaraklar hamda foydali tashabbuslarga keng jalb etish orqali yoshlarning boʻsh vaqtini samarali tashkil etish, ularning iqtidor va qobiliyatlarini yuzaga chiqarish muhim vazifalardan biri ekani taʼkidlandi.

Shuningdek, iqtidorli va tashabbuskor yoshlarni aniqlash, ularning gʻoya va loyihalarini qoʻllab-quvvatlash, turli tanlov va musobaqalarda faol ishtirok etishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish masalalari muhokama qilindi. Yoshlarning tashabbuslarini qoʻllab-quvvatlash, ularni jamiyat hayotida faol ishtirok etishga undash kelgusida hududning rivojiga xizmat qiladigan muhim omillardan biri sifatida qayd etildi.

Yigʻilish davomida yoshlar oʻrtasida turli salbiy holatlarning oldini olish, ularni zararli illatlardan asrash, huquqiy va ijtimoiy savodxonligini oshirish, shuningdek, yoshlar bilan profilaktik va targʻibot-tashviqot ishlarini kuchaytirish boʻyicha amalga oshirilayotgan ishlar ham tahlil qilindi.

Ayniqsa, yordamga ehtiyojmand, ihsiz, kasb-hunarga ega boʻlmagan yoki muayyan muammolarga duch kelayotgan yoshlarni aniqlash va

ular bilan individual ishlashga ustuvor ahamiyat berish lozimligi taʼkidlandi. Har bir mahallada yoshlarning muammolarini oʻrganish, ularni tegishli tashkilotlarga binkiritish va masalalarni natijadorlik asosida hal etish boʻyicha vazifalar belgilandi.

Yigʻilishda “Yoshlar kuni” doirasida amalga oshirilayotgan tadbirlarning mazmun-mohiyatiga ham eʼtibor qaratilib, tashkil etilayotgan loyihalar yoshlarning real ehtiyoj va qiziqishlariga mos boʻlishi, tadbirlar soni emas, balki ularning amaliy natijasi muhim ekani qayd etildi.

Tuman hokimi Ibrohim Qarshiboyev yoshlar bilan ishlashda mas’ullardan yangicha yondashuv, tashabbuskorlik va qatʼiyat talab etilishini taʼkidladi. Yoshlarning har bir murojaati eʼtibordan chetda qolmasligi, mavjud muammolarni oʻz vaqtida aniqlash va ularning yechimini taʼminlash boʻyicha aniq choralar koʻrilishi lozimligi qayd etildi.

Yigʻilish yakunida mas’ullarga yoshlar bilan ishlash samaradorligini oshirish, ularning bandligini taʼminlash, boʻsh vaqtini mazmunli tashkil etish, iqtidor va tashabbuslarini qoʻllab-quvvatlash hamda yoshlar muammolarini manzilli hal etish yuzasidan tegishli topshiriqlar berildi.

Belgilangan vazifalarning ijrosini muntazam nazorat qilib borish, amalga oshirilayotgan ishlarning natijadorligini tahlil qilish va aniqlangan kamchiliklarni oʻz vaqtida bartaraf etish boʻyicha mas’ullarning vazifalari belgilab berildi.

Zero, yoshlar — Yangiobod tumanining buguni va kelajagi. Ularning bilimlari, tashabbuslari, kasb-hunarlari va faol boʻlib voyaga yetishi uchun yaratilayotgan imkoniyatlardan samarali foydalanish, yoshlar bilan ishlashni yangi bosqichga olib chiqish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir.

YANGIOBOD TUMANI IIB BOSHLOGʻINING SHAXSIY QABULI OʻTKAZILDI

Yangiobod tumani Ichki ishlar boʻlimi boshligʻi, polkovnik J. Xojanov tomonidan fuqarolarning murojaatlarini bevosita eshitish, ularning muammolarini oʻrganish va qonuniy yechim topishga qaratilgan navbatdagi shaxsiy qabul oʻtkazildi.



Ochiq muloqot shaklida tashkil etilgan qabul davomida fuqarolar oʻzlarini qiynab kelayotgan turli masalalar yuzasidan murojaat qilib, tegishli tartibda huquqiy va amaliy yordam olish imkoniyatiga ega boʻldilar.

Qabul davomida jami 6 ta murojaat kelib tushdi. Fuqarolar tomonidan bildirilgan murojaatlarda asosan shaxsiy va oilaviy masalalar, huquqiy muammolarni hal etish, haydovchilik huquqini tiklash, voyaga yetmagan farzandlarning qarovsiz qolishi, yoʻl harakati xavfsizligini taʼminlash, shuningdek, oilaviy tazyiq va zoʻravonlikdan himoyalalanish kabi masalalar koʻtarildi.

Har bir murojaat alohida tartibda tinglanib, fuqarolarga masalalarni qonunchilikda belgilangan tartibda hal etish yoʻllari yuzasidan zarur tushuntirishlar berildi. Murojaatlangan 2 tasi qabul jarayonining oʻzida joyida hal etildi.

Qolgan murojaatlar yuzasidan esa tegishli mutasaddilarga aniq topshiriqlar berilib, koʻtarilgan masalalarni chuqur oʻrganish, fuqarolarning qonuniy manfaatlarini taʼminlash va murojaatlarni belgilangan tartibda hal etish vazifalari yuklatildi.

Qabul davomida oilaviy tazyiq va zoʻravonlikdan himoyalalanish masalasida murojaat qilgan fuqaroga ham alohida eʼtibor qaratildi. Unga amaldagi qonunchilik talablari, tazyiq va zoʻravonlikdan jabrlangan shaxslarning huquqlari hamda mavjud himoya mexanizmlari haqida batafsil huquqiy tushuntirish berildi. Jumladan, zarur hollarda himoya orderini olish tartibi, uning ahamiyati va murojaat qilish

tartibi tushuntirib berildi.

Shuningdek, voyaga yetmaganlarning qarovsiz qolishining oldini olish, oilalarda sogʻlom muhitni shakllantirish, yoʻl harakati xavfsizligini taʼminlash va fuqarolarning huquqiy manfaatlarini himoya qilish borasida tegishli choralarni koʻrish zarurligi qayd etildi.

Shaxsiy qabul davomida murojaatlarni faqat tinglash bilan cheklanib qolmasdan, har bir masala boʻyicha aniq yechim va amaliy natijaga erishish muhimligi taʼkidlandi. Mas’ullarga fuqarolar tomonidan koʻtarilgan masalalarni oʻz vaqtida va qonuniy asosda koʻrib chiqish, ijrosini nazorat qilish hamda murojaat egalari natijasi haqida belgilangan tartibda maʼlumot berish boʻyicha topshiriqlar berildi.

Fuqarolar bilan bevosita va ochiq muloqotlar aholining huquqiy muammolarini oʻz vaqtida aniqlash, ularning qonuniy manfaatlarini himoya qilish, huquqbuzarliklarning oldini olish hamda fuqarolar murojaatlari bilan ishlash samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bunday shaxsiy qabullar orqali aholi bilan toʻgʻridan-toʻgʻri muloqot qilish, muammolarni joyida oʻrganish va imkon qadar tezkor hamda qonuniy yechim topish boʻyicha amaliy ishlar izchil davom ettirilmoqda.

YANGIOBOD OVOZI YANGIOBOD TUMAN HOKIMLIGI GAZETASI	Bosh muharrir: A. MUHAMMADIYEV Gazeta Jizzax viloyati matbuot va axborot boshqarmasida 06-041 raqami bilan roʻyhatdan oʻtgan.	TAHRIR HAYʼATI: Ibrohim QARSHIBOYEV Azizbek NISHIONOV Valijon XASANOV Beknazar TOSHBOYEV Olimjon BEGMATOV Fozil HAMROYEV	NASHR UCHUN MASʼUL: A. MUHAMMADIYEV Gazeta tahririyat kompyuter markazida terilib, sahifalandi. Qogʻoz bichimi A-3. Gazeta «RASTR PLYUS PRINT» MCHJ da ofset usulida 200 nusxada chop etildi. Korxona manzili: Jizzax shaxri, Sayiljoy koʻchasi, 4-uy. Bosishga ruhsat etildi 13.08.2026-yil BUYURTMA №
MUASSIS: YANGIOBOD TUMAN HOKIMLIGI	MANZILIMIZ: Yangiobod tumani, Yangiobod shaharchasi, Mustaqillik koʻchasi 1-uy.	TELEFON: +998 72 542-11-31	

BUYUK KELAJAKNI BIRGA QURAMIZ

YANGIOBOD OVOZI

YANGIOBOD TUMANI HOKIMLIGINING IJTIMOY-SIYOSIY, MAʼRIFIY GAZETASI

9-son (69) 13-avgust 2026-yil, payshanba Ijtimoiy-siyosiy, maʼrifiy gazeta Bahosi erkin narxda Gazeta 2019-yil yanvardan chiqa boshladi

AVGUST OYI UCHUN USTUVOR VAZIFALAR MUHOKAMA QILINDI

Yangiobod tumani hokimi raisligida tumanda avgust oyida amalga oshirilishi lozim boʻlgan ustuvor vazifalarga bagʻishlangan yigʻilish oʻtkazildi. Unda ***Jizzax viloyatida avgust oyida raqamlashtirishni joriy etish, jinoyatchilikni jilovlash va yashirin iqtisodiyotni qisqartirish boʻyicha chora-tadbirlar dasturi***da belgilangan vazifalar ijrosi muhokama qilindi.



Yigʻilishda tumanning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini taʼminlash, hududda zamonaviy raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, aholiga koʻrsatilayotgan davlat va ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish, shuningdek, yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish borasida amalga oshirilishi zarur boʻlgan chora-tadbirlar yuzasidan fikr almashildi.

Dasturda belgilangan vazifalarning har biri hududning bugungi kundagi dolzarb masalalari bilan bevosita bogʻliq ekani taʼkidlandi. Xususan, raqamlashtirish yoʻnalishida mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish, ish jarayonlariga zamonaviy axborot texnologiyalarini keng tatbiq etish, elektron xizmatlardan foydalanish koʻlamini kengaytirish

hamda raqamli tizimlarning samaradorligini oshirish masalalariga alohida eʼtibor qaratildi.

Shuningdek, hududda jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish, aholi, ayniqsa, yoshlar oʻrtasida profilaktik tadbirlarni kuchaytirish, muammoli oilalar va nazoratga muhtoj fuqarolar bilan manzilli ishlash, jinoyat sodir etilishiga sabab boʻlayotgan omillarni barvaqt aniqlash va ularni bartaraf etish boʻyicha vazifalar belgilab berildi.

Yigʻilishda yashirin iqtisodiyotni qisqartirish masalasi ham muhim yoʻnalishlardan biri sifatida qayd etildi. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini qonuniy asosda olib borishini taʼminlash, norasmiy bandlikni kamaytirish, soliq bazasini kengaytirish, iqtisodiy faoliyatning shaffofligini oshirish hamda mavjud imkoniyatlardan qonuniy va samarali foydalanish boʻyicha mas’ullarga tegishli topshiriqlar berildi.

Muhokamalar davomida har bir yoʻnalish boʻyicha hududda olib borilayotgan ishlar tanqidiy-tahliliy ruhda koʻrib chiqildi. Erishilgan natijalar bilan bir qatorda, mavjud muammo va kamchiliklar ham koʻrsatib oʻtildi. Belgilangan vazifalarni faqat qogʻozda bajarish bilan cheklanib qolmasdan, ularning amaliy natijadorligini taʼminlash, har bir topshiriqning ijrosini aniq muddat va mas’ullar kesimida tashkil etish zarurligi qayd etildi. Yigʻilish yakunida mas’ul rahbar va mutasaddilarga dasturda belgilangan vazifalarni oʻz vaqtida, sifatli va samarali amalga oshirish, aniqlangan kamchiliklarni tezkor bartaraf etish hamda ijro intizomini mustahkamlash yuzasidan aniq topshiriqlar berildi.

Shuningdek, avgust oyida amalga oshirilishi belgilangan chora-tadbirlarning ijrosi ustidan muntazam monitoring olib borish, natijadorlikni doimiy tahlil qilib borish va har bir yoʻnalish boʻyicha mas’ullarning shaxsiy javobgarligini oshirish zarurligi alohida taʼkidlandi.

Mazkur vazifalarning izchil va samarali amalga oshirilishi Yangiobod tumani raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish, jamoat xavfsizligini taʼminlash, huquqbuzarliklarning oldini olish hamda iqtisodiy faoliyatning shaffofligini oshirishga xizmat qiladi.

Yangiobod tumani hokimligi axborot xizmati.

ZAMONAVIY YOSHLAR VA KITOBXONLIK: MUTOLAA — KELAJAK SARI YOʻL

Bugungi globallashtirish va axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan davrda yoshlarning dunyoqarashi, bilim va tafakkurini shakllantirishda kitobxonlikning oʻrni beqiyosdir. Inson hayotida kitob nafaqat bilim manbai, balki maʼnaviy kamolot, mustaqil fikrlash va hayotiy qarashlarni shakllantirish vositasi ham hisoblanadi

Hozirgi yoshlar zamonaviy texnologiyalar bilan chambarchas bogʻliq holda voyaga yetmoqda. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, elektron kitoblar va turli raqamli platformalar ularga katta hajmdagi axborotni tezkor olish imkoniyatini bermoqda. Biroq axborotning koʻpligi uning barchasi foydali degani emas. Shu sababli yoshlarni kerakli maʼlumotni tanlay olish, tahlil qilish va undan toʻgʻri foydalanishga oʻrgatishda kitobxonlik muhim ahamiyat kasb etadi.

Mutolaa qilgan yoshning fikrlash doirasi kengayadi, soʻz boyligi ortadi, nutq madaniyati rivojlanadi. Ayniqsa, badiiy adabiyot insonni yaxshilik, mehr-oqibat, vatanparvarlik, insonparvarlik kabi ezgu fazilatlarga chorlaydi. Ilmiy va ilmiy-ommabop adabiyotlar esa yoshlarning kasbiy bilimlarini boyitib,

yangi gʻoyalar va izlanishlarga undaydi. Bugungi kunda yoshlar oʻrtasida kitobxonlikni rivojlantirishga qaratilgan turli loyihalar amalga oshirilmoqda.

Bugungi axborot-kutubxona markazlari ham faqat kitob saqlanadigan maskan boʻlib qolmasdan, yoshlarning bilim olishi, muloqot qilishi va ijodiy salohiyatini namoyon etishi uchun zamonaviy maʼrifiy makonga aylanmoqda. Kutubxonalarda kitob taqdimotlari, davra suhbatlari, ijodkorlar bilan uchrashuvlar, mutolaa kechalari, intellektual tanlovlar va bibliografik sharhlar tashkil etilishi yoshlarning kutubxonaga boʻlgan qiziqishini yanada oshiradi.

Shuningdek, bugungi kunda elektron kitob va audiokitoblardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish ham muhimdir. Yoshlarning zamonaviy qiziqishlarini hisobga olgan holda kitobxonlikni ijtimoiy tarmoqlar orqali targʻib qilish, qisqa videolar, kitob sharhlar, onlayn viktorinalar va elektron tavsiyalar tayyorlash yaxshi samara bermoqda.

Kitobxonlikni faqat kutubxona yoki taʼlim muassasasining vazifasi deb qarash toʻgʻri emas. Bu

jarayonda oila, mahalla, taʼlim muassasalari, yoshlar tashkilotlari va axborot-kutubxona markazlarining hamkorligi muhim. “Kitobxon oila” kabi tashabbuslar oilada mutolaa muhitini shakllantirish va yoshlarni kitobga yanada yaqinlashtirishga xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, bugungi yoshlar uchun kitobxonlik — shunchaki boʻsh vaqtni mazmunli oʻtkazish vositasi emas. U bilim, tafakkur, maʼnaviyat va kelajakdagi muvaffaqiyatning muhim poydevoridir. Texnologiyalar qanchalik rivojlanmasin, kitob inson tafakkurini boyituvchi va uni ezigulikla chorlovchi bebaho manba boʻlib qolaveradi.

Yoshlarni kitobga oshno qilish, ularda muntazam mutolaa odatini shakllantirish va kitobxonlikni zamonaviy usullar orqali targʻib qilish — bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. Zero, kitob oʻqigan yosh — mustaqil fikrlaydigan, bilimli va kelajakka ishonch bilan qadam qoʻyadigan yoshdir.

M.Mansurova

Yangiobod tumani axborot-kutubxona markazi Axborot-bibliografiya xizmat rahbari

Davlat xizmatchisi mol-mulkka egalik qilishi mumkinmi? Uy-joy, avtomobil yoki boshqa mol-mulk sotib olsa, bu qonunga zid hisoblanadimi? Oila aʼzolarining mol-mulki ham deklaratsiya qilinadimi?

Bu savollarga javob berishda bir jihatni aniq ajratib olish kerak: davlat xizmatchisi boʻlish fuqaroning mulkdor boʻlish huquqini bekor qilmaydi. Ammo xizmat mavqeidan shaxsiy manfaat uchun foydalanish, tadbirkorlik bilan shugʻullanish, ayrim aktivlarga egalik qilish va manfaatlar toʻqnashuviga yoʻl qoʻyish boʻyicha qonunchilikda maxsus cheklavlarni ber.

1. Davlat xizmatchisi uy-joy va boshqa mol-mulkka egalik qilishi mumkin

Qonun davlat fuqarolik xizmatchisiga Oʻzbekiston hududida qonuniy asoslarda mol-mulkka egalik qilinishi umumiy tarzda taqiqlamaydi.

Masalan, xizmatchi oʻzining qonuniy daromadi hisobidan kvartira, uy, avtomobil yoki boshqa mol-mulk sotib olishi mumkin.



Biroq mol-mulkning kelib chiqish manbasi qonuniy boʻlishi va u belgilangan tartibda deklaratsiya qilinishi kerak. Davlat fuqarolik xizmatchisi daromadlari va mol-mulki toʻgʻrisida deklaratsiya taqdim etishi shart. Bu majburiyat «Davlat fuqarolik xizmati toʻgʻrisida»gi Qonunning 12 va 20-moddalarida belgilangan.

2. Mol-mulkka egalik qilish — deklaratsiyadan ozod qilmaydi

Qonunga koʻra, xizmatchi belgilangan muddat va tartibda daromadlari hamda mol-mulki toʻgʻrisida deklaratsiya taqdim etishi shart.

Deklaratsiya tizimining maqsadi — xizmatchining daromadlari va mol-mulki bilan uning rasmiy daromadlari oʻrtasida nomutanosiblik bor-yoʻqligini aniqlash, korruptsiyaviy xavflarni kamaytirish va manfaatlar toʻqnashuvining oldini olish.

3. Oila aʼzolarining mol-mulki ham eʼtibordan chetda qolmaydi

Davlat xizmatchisining moliyaviy manfaatlari faqat uning shaxsiy mol-mulki bilan cheklanmaydi.

«Manfaatlar toʻqnashuvi toʻgʻrisida»gi Qonunning 5-moddasida xodimga aloqador shaxslar, jumladan uning yaqin qarindoshlari, shuningdek xodim yoki uning yaqin qarindoshlari ulush yoki aksiyalarga egalik qiladigan yuridik shaxslar belgilangan.

Shuning uchun oila aʼzosining moliyaviy manfaati davlat xizmatchisining xizmat vakolatlariga taʼsir qilsa yoki taʼsir qilishi mumkin boʻlsa, bu holat manfaatlar toʻqnashuvi nuqtai nazaridan baholalanadi.

Yaʼni, “mol-mulkni oila aʼzom nomiga rasmiylashtirsam, menga daxli yoʻq” degan yondashuv qonunchilik nuqtai nazaridan xavfli.

4. Davlat xizmatchisi chet eldagi koʻchmas mulkka egalik qila olmaydi

Bu eng muhim cheklovlardan biri.

«Davlat fuqarolik xizmati toʻgʻrisida»gi Qonunning 13-moddasiga koʻra, davlat fuqarolik xizmatchisi Oʻzbekiston hududidan tashqarida hisobvaraqlar ochishga va ularga ega boʻlishga, shuningdek chet elda koʻchmas mulk va boshqa mol-mulkka egalik qilishga haqli emas.

Qonunda bundan ayrim istisnolar ham belgilangan: masalan, chet davlatda taʼlim olish, stajirovka oʻtash yoki tibbiy xizmatlardan foydalanish maqsadida ochilgan hisobvaraqlar, shuningdek davlat xizmatiga kirishdan oldin olingan va oshkor qilingan mol-mulk bundan mustasno.

5. Davlat xizmatchisi tadbirkor boʻla olmaydi

Davlat fuqarolik xizmatchisi:

- tadbirkorlik faoliyati bilan shugʻullana olmaydi;
- tadbirkorlik subʼekti tashkil eta olmaydi;
- uning muassisi yoki ishtirokchisi boʻla olmaydi;
- tadbirkorlik subʼektida tashkiliy-boshqaruv yoki maʼmuriy-xoʻjalik vazifalarini bajara olmaydi.

Biroq qonunchilikda belgilangan talablar doirasida erkin muomaladagi aksiyalarga egalik qilish istisno sifatida nazarda tutilgan.

Shuning uchun davlat xizmatchisining kvartira yoki avtomobil, sotib olishi bilan

tadbirkorlik subʼektiga egalik qilishi bir xil huquqiy holat emas.

6. Davlat xizmatchisi oʻz organi nazoratidagi kompaniyada ulush ola olmaydi

Davlat xizmatchisi xizmat qilayotgan davlat organi nazorati ostidagi yoki u bilan aloqalar va manfaatlarga ega boʻlgan tashkilotlarda ulush, pay va aksiyalarni bevosita yoki vakil orqali olishi taqiqlanadi.

Bu qoida manfaatlar toʻqnashuvining oldini olishga qaratilgan.

Masalan, davlat xizmatchisi litsenziya berish, nazorat qilish yoki davlat xaridlarida qaror qabul qilish vakolatiga ega boʻlgan sohadagi kompaniyada manfaatdor boʻlsa, uning shaxsiy manfaati xizmat vazifasiga taʼsir qilishi mumkin.

7. Xizmat mavqeidan foydalanib boylik orttirish mumkin emas

Davlat xizmatchisi oʻz xizmat mavqeidan shaxsiy yoki boshqa gʻayriqonuniy maqsadlarda foydalanmasligi shart.

Shuningdek, xizmat vakolatlarini bajarish yoki bajarmaslik evaziga fuqarolar yoki tashkilotlardan mukofot, foyda yoki sovgʻa olish taqiqlangan.

Demak, mol-mulkning oʻzi qonuniy boʻlishi yetarli emas. U qanday manba hisobidan va qanday munosabatlar natijasida oʻrtirilgani ham muhim.

8. Oila aʼzosisga berilgan mol-mulk ham manfaatlar toʻqnashuviga sabab boʻlishi mumkin

«Davlat fuqarolik xizmati toʻgʻrisida»gi Qonunga koʻra, xizmatchi va uning oila aʼzolariga berilgan moddiy qiymatga ega mol-mulk yoki begʻaraz koʻrsatilgan xizmat ham sovgʻa sifatida baholanishi mumkin. Xizmat vakolatlarini bajarish yoki bajarmaslik evaziga sovgʻa olish taqiqlangan.

Bundan tashqari, «Manfaatlar toʻqnashuvi toʻgʻrisida»gi Qonunga koʻra, xodimning yaqin qarindoshlari ham aloqador shaxslar doirasiga kiradi.

Shu sababli xizmatchining yaqin qarindoshiga berilgan manfaat ham ayrim hollarda huquqiy baholash predmetiga aylanishi mumkin.

9. Manfaatlar toʻqnashuvi paydo boʻlsa, xizmatchi bu haqda xabar berishi shart

Davlat xizmatchisi oʻzining shaxsiy manfaatlari xizmat vazifalarini xolis bajarishiga taʼsir qilsa yoki taʼsir qilishi mumkin boʻlsa, bunday vaziyatni yashirmasligi kerak.

«Manfaatlar toʻqnashuvi toʻgʻrisida»gi Qonunga koʻra, mavjud manfaatlar toʻqnashuvi yuzaga kelganda, xodim qaror qabul qilinishidan oldin oʻzining bevosita rahbarini yoki maxsus boʻlinmani xabardor qilishi kerak.

Qonun, shuningdek, manfaatlar toʻqnashuvi toʻgʻrisida xabar bermaganlik, bila turib yolgʻon yoki notoʻgʻri axborot taqdim etish yoki axborotni yashirish uchun javobgarlik choralarini nazarda tutadi.

10. Qoidalarni buzish intizomiy va boshqa javobgarlikka olib kelishi mumkin

Davlat fuqarolik xizmati bilan bogʻliq cheklovlarga rioya qilmaslik davlat xizmatchisini qonunchilikda belgilangan intizomiy va boshqa javobgarlikka tortish uchun asos boʻladi.

Manfaatlar toʻqnashuvi mavjud boʻlgan holda qabul qilingan qarorlar va tuzilgan bitimlar ham qayta koʻrib chiqilishi, bekor qilinishi yoki belgilangan tartibda haqiqiy emas deb topilishi uchun sudga murojaat qilinishi mumkin.

Xulosa

Davlat xizmatchisi mol-mulkka egalik qilishi mumkin. Qonun davlat xizmatchisining Oʻzbekiston hududida uy-joy, avtomobil va boshqa qonuniy mol-mulkka egalik qilishini umumiy tarzda taqiqlamagan.

Ammo mol-mulkning qonuniy manbasi, uni deklaratsiya qilish, chet eldagi aktivlar, tadbirkorlikda ishtirok etish, aksiya va ulushlarga egalik qilish hamda oila aʼzolarining manfaatlari alohida huquqiy nazoratda boʻladi.

J.Abduxalikov

Yangiobod tuman adliya boʻlimi boshligʻi

Litsenziyasiz yoki ruxsatsiz faoliyat yuritganlik uchun qanday javobgarlik mavjud?

Tadbirkorlik faoliyatini qonuniy amalga oshirish uchun ayrim faoliyat turlari boʻyicha litsenziya olish, ruxsat beruvchi hujjatga ega boʻlish yoki vakolatli organni faoliyat boshlangani haqida xabardor qilish talab etiladi. Ushbu talablarni buzish esa maʼmuriy javobgarlikka sabab boʻladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksining 165-moddasida litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari toʻgʻrisidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik belgilangan. Unga koʻra, faoliyatni xabardor qilish tartibida amalga oshirayotgan shaxs tomonidan vakolatli organga qonunchilikda mazkur faoliyat uchun belgilangan talablar va shartlar bajarilganligi toʻgʻrisida yolgʻon yoki notoʻgʻri axborot taqdim etilishi fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining uch baravaridan besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa besh baravaridan oʻn baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab boʻladi.

Shuningdek, xabardor qilish tartibida amalga oshirilishi lozim boʻlgan faoliyat yoki harakatlar bilan tegishli xabardornoma yubormasdan shugʻullanish ham maʼmuriy javobgarlikka sabab boʻladi. Bunday holatda fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan oʻn baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa oʻn baravaridan oʻn besh baravarigacha miqdorda jarima solinadi.

Ayrim faoliyat turlarini amalga oshirish uchun ruxsat berish

xususiyatiga ega hujjatni olish talab etiladi. Agar shaxs bunday hujjatni olmasdan mazkur faoliyat yoki harakatlar bilan shugʻullansa, unga nisbatan ham maʼmuriy javobgarlik qoʻllaniladi. Bunda fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining oʻn baravaridan oʻn besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa oʻn besh baravaridan yigirma baravarigacha miqdorda jarima solinadi.

Litsenziyalanishi lozim boʻlgan faoliyat bilan tegishli litsenziyani olmasdan shugʻullanish esa yanada yuqori miqdordagi jarimaga sabab boʻladi. Bunday holatda fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining oʻn besh baravaridan yigirma baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa yigirma baravaridan yigirma besh baravarigacha miqdorda jarima solish nazarda tutilgan.

Shu sababli tadbirkorlik faoliyatini boshlashdan oldin mazkur faoliyat turi litsenziyalanishi yoki ruxsat berish xususiyatiga ega hujjat olishni talab etishi, shuningdek xabardor qilish tartibida amalga oshirilishi lozim yoki lozim emasligini aniqlash muhim hisoblanadi. Qonunchilikda belgilangan talablarga rioya qilmasdan faoliyat yuritish nafaqat tadbirkorlik subʼektining faoliyatiga salbiy taʼsir koʻrsatishi, balki belgilangan tartibda maʼmuriy javobgarlikka ham sabab boʻlishi mumkin.

S.Sariboyev
Yangiobod tuman adliya boʻlimi
Davlat xizmatlari markazi direktori

MEHNAT HUQUQLARI QONUN BILAN KAFOLATLANGAN

Maʼlumki, xodim va ish beruvchi oʻrtasidagi taraflarning oʻzaro huquqlari hamda majburiyatlarini belgilovchi kelishuv boʻlmish mehnat shartnomasida unga muvofiq xodim ish beruvchining manfaatini koʻzlab, ushbu kelishuvda belgilangan mehnat vazifasini uning rahbarligi va nazorati ostida shaxsan bajarish, ichki mehnat qoidalariga rioya etish majburiyatini, ish beruvchi esa xodimga shartlashilgan mehnat vazifasi boʻyicha ish berish, xodimga ish haqini oʻz vaqtida hamda toʻliq miqdorda toʻlash, mehnat toʻgʻrisidagi qonunchilikda, mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarda va ushbu kelishuvda nazarda tutilgan mehnat sharoitlarini taʼminlash majburiyatini oʻz zimmasiga oladi, yaʼni mehnatga haq toʻlash mehnat munosabatlarining eng asosiy sharti hisoblanadi. Biroq ayrim hollarda ish beruvchilar tomonidan xodimlarga ular tomonidan bajarilgan mehnati uchun Oʻzbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi talablariga muvofiq belgilangan kafolatlar asosida va oʻz vaqtida haq toʻlmamaslik holatlari kuzatilmoqda va buning natijasida sudlarda mehnat nizolari bilan bogʻliq ishlar ortib bormoqda.



Binobarin, Oʻzbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 253-moddasiga koʻra, xodimlarga ish haqi toʻlash muddatlari jamoa shartnomasida yoki ichki hujjatda, ular mavjud boʻlmaganda esa mehnat shartnomasida shart qilib koʻrsatilgan muddatlarda belgilanadi va har yarim oyda bir martadan kam boʻlishi mumkin emas. Xodimlarga oylik ish haqi, qoida tariqasida, oʻn olti kundan koʻp boʻlmagan tanaffus bilan ikki qismga boʻlingan holda (boʻnakda va qolgan qismi miqdorida) toʻlanadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan ish haqi oyiga bir marta toʻlanadigan xodimlarning ayrim toifalari belgilanishi mumkin. Ish haqi toʻlanadigan kun dam olish kuniga yoki ishlanmaydigan

bayram kuniga toʻgʻri kelib qolganda ish haqi ushbu kunlar arafasida toʻlanadi. Xodimga tegishli boʻlgan ish haqining oʻz vaqtida toʻlanishi va miqdori boshqa toʻlovlarni amalga oshirishga hamda ularning navbatiga bogʻliq qilib qoʻyilmasligi kerak. Ish beruvchi xodimning soʻroviga koʻra uni ish beruvchi tomonidan xodimning ish haqini hisob-kitob qilish chogʻida amalga oshirilgan hisoblashlar va ushlab qolishlar toʻgʻrisida xabardor qilishi shart. Ish beruvchi ish haqini toʻlash kechiktirilganligi uchun xodim oldida ushbu Kodeksning 333-moddasida belgilangan miqdorda moddiy javobgar boʻlishi belgilangan.

Shuningdek, ushbu Kodeksning 254-moddasiga asosan, mehnat shartnomasi bekor qilinganda ish beruvchidan xodimga berilishi kerak boʻlgan barcha summalarni toʻlash xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilingan kuni amalga oshiriladi. Agar xodim mehnat shartnomasi bekor qilingan kuni ishlamagan boʻlsa, tegishli summalar ushbu xodim tomonidan hisob-kitob qilish toʻgʻrisidagi talab taqdim etilganidan keyin uch kundan kechiktirmay toʻlanishi kerak. Mehnat shartnomasi bekor qilinganda xodimga tegishli boʻlgan summalar miqdorlari toʻgʻrisida nizo chiqqan taqdirda, ish beruvchi xodimga shak-shubhasiz tegadigan summani ushbu moddaning birinchi qismida koʻrsatilgan muddatda toʻlashi shart. Ichki hujjatlarda nazarda tutilgan hollarda xodim, agar u hatto mukofot toʻlanayotgan paytda yakka tartibdagi mehnatga oid munosabatlarda boʻlmasa ham, bir yildagi ish yakunlariga koʻra mukofot olish huquqiga ega boʻladi. Aks holda, ish beruvchilar tomonidan mazkur talablarning buzilishi ularga nisbatan Oʻzbekiston Respublikasining Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksi (<https://old.lex.uz/docs/97664>)ning 49-moddasida nazarda tutilgan mansabdor shaxs tomonidan mehnat va mehnatni muhofaza qilish toʻgʻrisidagi qonunchilikni buzishi bilan bogʻliq huquqbuzarliklar uchun ularga nisbatan bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan oʻn baravarigacha miqdorda jarima solish bilan bogʻliq oqibatlar keltirib chiqaradi.

Bundan koʻrinadiki, xodimlarning mehnatga oid huquqlari, yaʼni bajargan mehnatlari uchun belgilangan muddatlarda haq olishga oid huquqlari qonun bilan kafolatlangan boʻlib, ish beruvchilar tomonidan oʻz majburiyatlarini oʻz vaqtida bajarishlari ushbu toifadagi nizolarning oldi olinishiga omil boʻladi. Zero, muhtaram Prezidentimiz takidlaganidek “Har bir insonning dardu tashvishi bilan yashash eng asosiy vazifamiz boʻlmogʻi lozim” – degan shiorga amal qilib, oʻz vazifalarimizni vijdonan bajarish va bu bilan Yangi Oʻzbekistonimizning ravnaqiga oʻz hissamizni qoʻshish barchamizning eng asosiy burchimizdir.

Sh.T.Choʻlboev
Fuqarolik ishlari boʻyicha Zarbdor tumanlararo sudi
devonxona mudiri